# MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

**Xamrayeva E'zozxon Muzaffarovna**
**O'zbekiston. Jizzax davlat pedagogika instituti**
**Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasi o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Yosh avlodni har tomonlama yetuk, axloqli, odobli kishilar sifatida kamol toptirish muhim vazifadir. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi
bolalar nutqini rivojlantirishning nazariy asoslari xaqida so'z borgan.
**Kalit so'zlar**: ta'lim jarayoni, nutq faoliyati, programmalashtirish mexanizmi, nutq tovushlarini tanlash, shakl, tuzilish, ma'no, mazmun va mohiyat,
uzluksizlik.
**Annotation:** It is an important task to develop the younger generation as mature, moral and polite people. This article discusses the theoretical foundations
of speech development in preschool children.
**Keywords:** learning process, speech activity, programming mechanism, choice of speech sounds, form, structure, meaning, content and essence, continuity.
**Аннотация:** Воспитание подрастающего поколения как зрелых, нравственных и вежливых людей - важная задача. В статье рассматриваются теоретические основы речевого развития дошкольников.
**Ключевые слова**: процесс обучения, речевая деятельность, механизм программирования, выбор звуков речи, форма, структура, значение, содержание и сущность, преемственность.

Ta'lim-tarbiya jarayonida berilayotgan bilimlarning maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar tomonidan qay darajada o'zlashtirilishi tarbiyachi tomonidan
qo'llanilayotgan uslublarga bog'liq. Shu bois bolalar nutqining rivojlantirishga tarbiyachining ta'sirini o'rganish muammoning dolzarbligini belgilab beradi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni ta'lim jarayoniga tayyorlashda nutq faoliyatining ahamiyati kattaligi ta'kidlanadi.
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQF-5198-sonli Farmonida belgilangan topshiriqlardan kelib chiqqan holda maktabgacha ta'lim sohasida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish, maktabgacha ta'lim muassasalarining ehtiyojlari
asosida yetuk mutaxassislar tayyorlash, ilg'or pedagogik va innovatsion texgoloniyalarni tatbiq etish, shuningdek, o'quv va ko'rgazmali materiallar tayyorlash choralarini ko'rish vazifalari mutasaddi tashkilotlar va ta'lim

muassasalariga yuklatildi. Belgilangan vazifalarni amalga oshirish, islohotlar

jarayonida ijtimoiy soha ob'yektlari sifatida – ta'lim muassasalariga katta e'tibor
qaratish zaruratini keltirib chiqardi. Bu mavzuning dolzarblinini belgilaydi, kasb
–hunar kolleji bolalarini
ta'limdani yangilanish asosan davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqishnin amalga oshirmay, balki ta'lim jarayoni orqali bolani o'z kelajanini yorqin tasavvur
qila oladigan bu borada o'z taqdiri va o'z shaxsiga ongli munosabatda bo'lib turli
faoliyatlarda o'zini o'zi rivojlantira oladigan erkin faol va mustaqil shaxsni shakllantirishni ko'zda tutadi.
Bolalarga to'g'ri ta'lim-tarbiya berish uchun ularni avvalo psixologik xususiyatlarni rivojlantirib olish muhimdir. Jumladan, nutq faoliyatining ta'limtarbiya jarayonidani o'rni juda katta.
Ko`tarilgan muammoning psixologik mohiyati psixolog olimlar tomonidan keng o`rganilgan bo`lib, ayniqsa V.V.Vlasenko, V.M.Karimova, V.N.Miasishev, N.I.
Jinkin, L.M.Fridman, E.G'.G'oziev va boshqalarning ishlarida yoritilgan. Muammoning uslubiy jihatlari zamonamiz olimlaridan V.Barshay, M.Bodalev, SH. T. Iskandarova, L.V. Zankov, B. Smirnov va boshqalarining ilmiy
izlanishlarida o`z ifodasini topgan.
N.I. Jinkin nutq mexanizmlarini quyidagicha izohlaydi:

- ❖ Biron fikrni nutq vositasi yordami bilan bayon qilishdan oldin, maxsus kod orqali bu fikrning asosini tuzamiz – u programmalashtirish mexanizmidir.
- ❖ Undan keyin rejalashtirishdan gapning grammatik tuzilishiga o'tish bilan bir guruh mexanizmlar keladi.
- ❖ Esda olib qolish so'zlarning grammatik xususiyatlarini amalda qo'llashni ta'minlovchi mexanizm.
- ❖ Bir xil tipdagi tuzilishdan boshqa tipdagi tuzilishga o'tish mexanizmi.
- ❖ Programma elementlarini grammatik tuzilishga yoyish mexanizmi.
- ❖ So'zni ma'nosiga qarab qidirishni ta'minlovchi mexanizmlar va Sintagmalarni harakat jihatidan programmalashtiruvchi mexanizmlar.
- ❖ Nutq tovushlarini tanlash va harakat programmasidan tovushlarni to'ldirishiga o'tish mexanizmlari.
- ❖ Nutqni amalga oshirishni ta'minlovchi mexanizm.

E.G'.G'oziev fikricha, nutqning muayyan asoslariga suyangan holda noan'anaviy tasnifini berish uning qiymatini yanada oshiradi, inson-texnika munosabatini amaliy jihatdan namoyish qilib, у **noverbal va verbal** turlarga

bo'linadi. (10. 46)
E.G'.G'oziev ta'rificha, tilning barcha qoidalariga (orfografik, morfologik, sintaksik, leksik, orfoepik, lingvistik, fonematik, fleksiv va h.k.), qonuniyatlariga,


mexanizmlariga (jonli ifodalarni mujassamlashtirgan holda) asoslangan tarzda,
muayyan shartli alomatlar (grafiklar) yordamida shakl, tuzilish, ma'no, mazmun
va mohiyatni uzluksiz, tadrijiy ravishda axborotlarga aylantirib beruvchi nutq turi
yozma nutq deyiladi. (13.58)
Go'dakning hayotiy faoliyati va taqdiri uni qurshagan, parvarishlaydigan katta yoshdagilarga bevosita bog'liq bo'lib, uning barcha ehtiyoj va talablari faqat
shular tomonidan qondiriladi. Psixologik iboralar bilan aytsak, kattalar bolaning
fazodagi o'rnini uzluksiz, o'zgartirishi, almashtirishi natijasida unda ko'rish, eshitish, teri tuyush, haroratni sezish, ta'm bilish kabi sezgilar rivojlanadi (takomillashadi). Kattalar go'dak uchun yaratgan ob'ektiv va syb'ektiv shartsharoitlar uning o'sishini belgilovchi muhim turtki vazifasini o'taydi. D. B. El'koninning fikricha, katta yoshdagi odamlar go'dakni qurshagan voqelikning markaziy siymosi, muhim tarkibiy qismi hisoblanib, uning har qanday ehtiyojini qondirish bilan bog'liq muammolar uchun tayanch nuqtasi vazifasini bajaradi. Go'dak tabiiy-biologik jihatdan onadan ajralgan bo'lsa ham,
aslida y bilan ijtimoiy bog'liqligicha qoladi. Frantsuz psixologi Anri Vallon go'dakda ijtmoiy ta'sirlanish ortib borishini atroflicha tadqiq qilgan olimdir. Uning ta'kidlashicha, yarim yoshli bolada boshqa odamlardan farqli ravishda javob reaktsiyasi (ta'siri) o'zining yuqori bosqichiga ko'tariladi. Bola olti oyligida
boshqa kishlarning imo-ishorasiz ta'siriga javob berishi (ta'sirlanishi) 50 foizni
tashqil qiladi, yetti oyligida esa aynan shu reaktsiya 20 foizga kamayadi, ammo
imo-ishora orqali muloqot 41 foizga ortadi; yetti-sakkiz oylikda boshqa kishilarga
talpinish, tabassym qilish birinchi yarim yillikdagidan to'rt marta ko'pdir. M. YU. Kistyakovskaya bir yoshgacha bolalarda kattalar bilan muloqotga kirishishning murakkablashib borishini o'rganib, bolalar psixologiyasi fani uchun
eng zarur materiallar to'plangan va ularni atroflicha izohlagan. Olimaning fikricha, 3 oylikdn 6 oylikkacha bolada katta yoshdagi odamlar bilan tanlab

munosabatda bo’lish vujudga keladi. Uch oyli go’dak begonalar orasidagi tyqqan
onasini ajrata olsa, yarim yoshdan boshlab esa begonalar ichidagi qarindoshlarini
ham farqlay biladi. 3-4 oylik go’dak unga yuzlangan, erkalatgan, muloqotga kirishgan har qanday odamga tabassym qiladi yoki erkalanadi, 5-6 oylikda u muomala qilayotgan notanish shaxsga bir oz tikiladi, keyin yo kulimsiraydi yoki
undan yuzini o’giradi, hatto, qo’rqib yig’lab yuboradi. Bolada o’zini parvarish qilayotgan, boqayotgan yaqin kishilarga bog’lanib qolish sodir bo’ladi. Xulosa qilib aytganda, yosh avlodni har tomonlama yetuk, axloqli, odobli kishilar sifatida kamol toptirish muhim vazifadir. Tarbiyachining bolalar bilan mazmunli suhbatlar o’tkazishi, ularni g’aroyibotlar olamiga olib kirishi, faollik sari yetaklashi alohida ahamiyat kasb etadi. Bog’cha yoshidagi bolalarning nutq





qobiliyatini rivojlantirishda ko’zlangan maqsadga erishish uchun ularning yoshi
va psixologik xususiyatlarini hisobga olish shart.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. Qodirova F.R., Qodirova R.M. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: «Istiqlol», 2006.
2. Qodirova F.R. Nutq o‘stirishni baholash uslubi // J.Sog‘lom avlod uchun. 2008. № 4-5, 6-7 betlar.
3. Г.И.ХАСАНОВА “Таълим жараёнида дастурлаштирилган ўқитиш технологиясидан фойдаланишнинг афзалликлари” Жиззах: 2020. 420 бет.
223-225б
4.Хасанова, Г. (2021). Олий таълим муассасалари педагогларининг Креатив қобилиятларини ривожлантиришнинг мазмуни. Academic Research in Educational Sciences, 2(1), 778-782

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 5.М.Усмонова | . | Ўқувчи | шахсига | йўналтирилган | педагогик |
| технологиялар Таълим технологиялари. 2016 йил. 4-сон. | | | | | |
| 6.М.Усмонова | .Педагогик | жараён | лойихаси | – | машғулотлар |

самарадорлигини таъминлаш воситаси сифатида Бошланғич таълим ва жисмоний маданият йўналишида сифат ва самарадорликни ошириш:

муаммо ва ечимлар Халқаро илмий конферентсия. Тошкент. 25 май, 2017
йил
7.Садиковна, у. м. (2013). Ali Şir Nevai Eserlerinde Bitki Adları . Dil ve Edebiyat Araştırmaları , (8) , 0-0 . Retrieved from
8. Maxfuza Usmanova, THE CONCEPT OF EDUCATIONAL PROFESSIONAL COMPETENCE AND ITS YIELD FACTORS , Архив Научных Публикаций JSPI: 2020: Архив №54
9. Norquziyeva, M. (2020). The role of educational technology in shaping the professional stability of students. Архив Научных Публикаций JSPI.
10.Abdurakhmonovna, N. M. (2020). Methodology of giving professional knowledge to future teachers. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary
Research Journal, 10(5), 1378-1383.
11. Manzura, N. (2021). Sustainable Activity in the Teaching Profession and Its Foundations. PsychologyandEducationJournal, 58(2), 1339-1345.
12.Abdurahmonovna, N. M. (2021). Pedagogical and Psychological Aspects of Professional Sustainability of Future Teachers.
5.Xasanova, G. (2020). Мактабгача таълим ташкилотларида халқ оғзаки ижоди воситаларидан фойдаланишнинг педагогик мазмуни. Архив Научных Публикаций JSPI.